



XALQ DEPUTATLARI ZARAFSHON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 5-mart

VI-76-35-5-78-K/24

Zarafshon shahar

Zarafshon shahrini ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish hamda “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etishda sektorlar rahbarlari tomonidan “mahallabay” va “xonadonbay” ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

Bugungi kunda Zarafshon shahridagi 15 ta mahallada jami 2292 nafar ishsiz fuqaro (shu jumladan, 1303 nafar xotin-qiz va 733 nafar yosh) hamda 49 nafar mehnatga layoqatli nogironligi bo‘lgan shaxs mavjud. Joriy yilda 13 ta umumta’lim maktabini 967 nafar o‘quvchi (shundan, 467 nafar o‘g‘il bola va 502 nafar qiz) bitirishi va mehnat bozoriga kirib kelishi kutilmoqda, harbiy xizmatdan qaytadiganlar esa 39 nafarni va migratsiyadan qaytib kelishi kutilayotganlar 409 nafarni tashkil etgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida” 2024-yil 9-yanvardagi PQ-7-son qarori ijrosini ta’minlash yuzasidan xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashining 2024-yil 8-fevraldagi VI-74-17-5-78-K/24-sonli qaroriga muvofiq shaharda 2024-yil mobaynida jami 3075 ta yangi ish o‘rni yaratilishi belgilangan. Bunda, yirik va hududiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish hisobiga 400 ta, xizmat ko‘rsatish yo‘nalishi bo‘yicha 2125 ta, qurilish yo‘nalishi bo‘yicha 550 ta ish o‘rni tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Shuningdek, shaharda yangi moliyaviy xizmatlarni joriy qilish, shu jumladan, mikromoliyalashni kengaytirish orqali 2443 nafar, shundan, o‘zini o‘zi band qilish hisobiga 1 716 nafar, yakka tartibdagi tadbirkorlik tashkil etish hisobiga 430 nafar, yangi tashkil etilayotgan tadbirkorlik subyektlari hisobiga 297 nafar aholini biznesga jalb qilinishi belgilab olingan. Shahar sektor rahbarlari tomonidan mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda jami 2 292 nafar ishsiz aholining bandligini ta’minlash bo‘yicha sektorlar kesimida alohida dasturlar ishlab chiqilgan. Ayni paytda, 15 ta mahallada hududni ishsizlikdan xoli hududga aylantirish hamda “Obod xonadon – obod ko‘cha – obod mahalla” mezonlarini joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlarni manzilli amalga oshirish bo‘yicha “Ombor kitoblari” tayyorlangan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 6, 24-moddalariga asosan, xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Sektorlar rahbarlari N. Rahmanov, Sh. Shernazarov, E. Yaxyoyev, Z.Shomurodovlarning 2024-yil mobaynida shaharni ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish hamda “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etishda sektorlar tomonidan hududlarda “mahallabay” va “xonadonbay” ishlash haqidagi dasturlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlarining:

sektorlar rahbarlari tomonidan aholi bandligini ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlarni kuchaytirish hamda ushbu yo‘nalishda shahardagi barcha korxona va tashkilotlar, mahallalar, ta’lim muassasalarida targ‘ibot tadbirlarini o‘tkazishga alohida e’tibor qaratish lozimligi;

“Yoshlar daftari”ga kiritilgan ishsiz yoshlar bandligini ta’minlash bilan bir qatorda, ular faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishda moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash kerakligi;

mahalla raislari ko‘pni ko‘rgan nuroniylar bilan birgalikda o‘z mahallasini ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirishda jamoatchilikning rolini yanada oshirish zarurligi;

“Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etishda barcha darajadagi deputatlar shaxsiy tashabbus va ibrat namunasini ko‘rsatishi lozimligi to‘g‘risidagi takliflari ijro uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

2024-yilda shaharda aholini doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda bandligini ta’minlash bo‘yicha yig‘ma maqsadli ko‘rsatkichlar 1-ilovaga;

2024-yil mobaynida shahardagi har bir sektor hududidagi aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar 2-ilovaga;

shaharda har bir sektor hududidagi aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha manzilli dasturlar 3-6-ilovalarga;

mahallalarda “Obod xonadon” mezonlari joriy etiladigan xonadonlar va ularda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar 7-8-ilovalarga;

“Xavfsiz mahalla” tamoyilini joriy etish borasida Xiva tumani “Istiqlol” mahallasi tajribasini ommalashtirish yuzasidan mahallalar va ta’lim muassasalarida o‘rnatiladigan kuzatuv kameralariga ehtiyoj bo‘yicha maqsadli ko‘rsatkichlar 9-ilovaga;

shaharni ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish hamda “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etish ishlari ustidan deputatlik nazoratini amalga oshirish bo‘yicha sektorlar va mahallalarga biriktirilgan xalq deputatlari shahar Kengashi deputatlarining ro‘yxati 10-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. 2024-yil mobaynida quyidagilarning bandligini ta’minlash ijro uchun qabul qilinsin:

1-sektor (N.Raxmanov) hududida jami 941 nafar ishsiz, shu jumladan 3 ta mahallada 573 nafar ishsiz fuqaro (shundan, 468 nafar xotin-qiz va 217 nafar yosh) hamda mehnatga layoqatli 12 nafar nogironligi bor shaxs, 4 ta umumta’lim maktabining 248 nafar bitiruvchisi (shundan, 107 nafar o‘g‘il bola va 141 nafar qiz), harbiy xizmatdan qaytadiganlar 13 nafarni va migratsiyada qaytib keladiganlar 95 nafarni;

2-sektor (Sh.Shernazarov) hududida jami 942 nafar ishsiz, shu jumladan 4 ta mahallada 557 nafar ishsiz fuqaro (shundan, 623 nafar xotin-qiz va 303 nafar yosh) hamda mehnatga layoqatli 16 nafar nogironligi bor shaxs, 3 ta umumta'lim maktabining 226 nafar bitiruvchisi (shundan, 91 nafar o'g'il bola va 135 nafar qiz), harbiy xizmatdan qaytadiganlar 12 nafarni va migratsiyadan qaytib keladiganlar 131 nafarni;

3-sektor (E.Yaxyoyev) hududida jami 799 nafar ishsiz, shu jumladan 4 ta mahallada 545 nafar ishsiz fuqaro (shundan, 607 nafar xotin-qiz va 279 nafar yosh) hamda mehnatga layoqatli 9 nafar nogironligi bor shaxs, 3 ta umumta'lim maktabining 139 nafar bitiruvchisi (shundan, 52 nafar o'g'il bola va 87 nafar qiz), harbiy xizmatdan qaytadiganlar 8 nafarni va migratsiyadan qaytib keladiganlar 98 nafarni;

4-sektor (Z.Shomurodov) hududida jami 1073 nafar ishsiz, shu jumladan 4 ta mahallada 614 nafar ishsiz fuqaro (shundan, 760 nafar xotin-qiz va 326 nafar yosh) hamda mehnatga layoqatli 12 nafar nogironligi bor shaxs, 3 ta umumta'lim maktabining 356 nafar bitiruvchisi (shundan, 165 nafar o'g'il bola va 191 nafar qiz), harbiy xizmatdan qaytadiganlar 6 nafarni va migratsiyadan qaytib keladiganlar 85 nafarni tashkil etadi.

5. Shahar sektor rahbarlari faoliyatida quyidagilar ustuvor vazifa sifatida belgilab qo'yilsin:

shahar hokimi va mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda 2024-yil mobaynida har bir sektor hududidagi aholi bandligini ta'minlash bo'yicha 5-8-ilovalarga muvofiq tasdiqlangan manzilli dasturlar ijrosini o'z vaqtida va to'liq ta'minlash.

Bunda manzilli dasturlarning o'z vaqtida va to'laqonli amalga oshirilishi natijasida 3075 ta doimiy ish o'rni yaratilishi, ishsizlik darajasi 5,0 foizdan 4,6 foizga tushishi hamda joriy yilda yangi loyihalarning ishga tushirilishi hisobiga byudjetga 1,2 mlrd so'm qo'shimcha manbaa aniqlanishi;

sektor hududidagi mahallalarni ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish, mahallalarda tizimli ishlarni tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z vaqtida va tizimli amalga oshirish.

6. Shahar sektorlar rahbarlari N.Rahmanov, Sh.Shernazarov, E.Yaxyoyev, Z.Shomurodovlar:

uch kun muddatda shaharni ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirishda natijadorlikka erishishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlarni belgilasin;

bunda aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, korrupsiyani oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar bilan bir qatorda, ushbu yo'nalishlarda korxona va tashkilotlar, mahallalar, ta'lim muassasalarida targ'ibot tadbirlarini o'tkazishga alohida e'tibor qaratilishi inobatga olinsin;

har kuni hududdagi mahallalarda "yettilik" faoliyatini muvofiqlashtirish va amaliy ko'maklashib borish hamda mahalla raislari bilan o'zaro axborot almashish, muammolarini eshitish va hal etish choralarini ko'rib borilishini ta'minlasin;

bir kun muddatda shahar hokimi, mutasaddi tashkilotlar va mahallalardagi "yettilik" bilan birgalikda sektorlar hududidagi har bir mahallada aholi bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli dasturlar ishlab chiqilishini va ijroga qaratilishini ta'minlasin;

uch kun muddatda har bir sektor bo'yicha tasdiqlangan aholi bandligini ta'minlash manzilli dasturlarning bajarilishi yuzasidan oylik va choraklik reja-grafiklarni "mahallabay" ishlab chiqsin;

har haftada "Obod xonadon", "Obod ko'cha" va "Obod mahalla" mezonlarini joriy etish yuzasidan mahallalarda amalga oshirilayotgan ishlarni joylarga chiqqan holda o'rganib borsin hamda shahar hokimligi, mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda mavjud muammolarni hal etishga ko'maklashib borsin;

har chorakda xalq deputatlari shahar Kengashiga aholi bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli dasturlar bajarilishi holati hamda korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan hisobot berib borsin;

bunda mahalliy byudjet va boshqa manbalar (jamg'armalar) hisobidan ajratilayotgan moddiy yordam pullari va kam ta'minlangan, iqtisodiy nochor oilalarga ajratilgan mablag'larning sarflanishi yoki ajratilishi yuzasidan alohida nazorat o'rnatilishini ta'minlasin;

hududiy investitsiya loyihalarini ishga tushirishi hisobiga yaratiladigan ish o'rinlari prognozi hamda tarmoq investitsiya loyihalarini ishga tushirishi hisobiga yaratiladigan yangi ish o'rinlarini muntazam ravishda tahlil qilib borilishini ta'minlasin;

har chorakda O'zbekiston mahallalar uyushmasi Zarafshon shahar bo'limi (D.Xusenov) bilan birgalikda sektorlar hududidagi har bir mahallada aholi bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli dasturlarning bajarilishi yuzasidan "mahalla yettiligi" a'zolarining aholiga hisobotlar taqdim etilishini tashkillashtirsin.

7. Shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari A. Shoxmirzayev:

uch kun muddatda mutasaddilik qilinadigan tashkilotlar bilan birgalikda 1-2-ilovalarda belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha shahardagi har bir korxona va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilasin hamda har hafta yakunida mas'ul tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini tanqidiy muhokama qilib borsin;

bir hafta muddatda Xalq bankining Zarafshon filiali va Mikro kreditbank bank xizmatlari markazi hamda shahar kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi (M. Djurayev) bilan birgalikda 15 ta mahallaning "ombor kitoblari"ga kiritilgan ishsiz aholining bandligini ta'minlash bo'yicha kreditlar va subsidiyalarni o'z vaqtida ajratish bo'yicha qo'shimcha choralarni belgilasin.

Bunda mahallalarni "o'sish nuqtalari" (ixtisoslashuv yo'nalishlari)dan kelib chiqib, yangi tadbirkorlik, jumladan "drayver" loyihalarini amalga oshirishda tashabbuskorlarga ko'maklashishni ustuvor vazifa sifatida belgilasin;

bir hafta muddatda har chorakda mutasaddilarni jalb etgan holda grafik asosida barcha mahallalarda oilalarning daromad manbalarini "xonadonbay" o'rganishlarini tashkil etsin;

doimiy ravishda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun to'siq bo'layotgan (qurilish uchun ruxsat berish, turli xil faoliyatlar uchun litsenziya olish, bo'sh bino va yer maydonlarini tadbirkorlik uchun ajratish, kommunikatsiya tizimlariga ulanish) muammolarni o'rganish va tezkorlik bilan hal etish choralari ko'rib borsin;

har chorakda grafik asosida Xalq bankining shahar filiali va Mikro kreditbank bank xizmatlari markazi tomonidan biriktirilgan mahallalarda har bir xonadonga kirib, ularga

kompleks bank va moliyaviy xizmatlarni taklif qilish orqali imtiyozli kreditlash dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishlarini ta'minlasin;

har haftada kamida 2 ta mahallaga shaxsan borgan holda aholi bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli dasturlar ijrosini hamda "ombor kitoblari"ga kiritilganlarning bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yaqindan o'rganib borsin va aniqlangan muammolardan kelib chiqib, shahar mas'ullari tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarni belgilab borsin.

8. Shahar hokimligi investitsiyalar va tashqi savdo bo'limi (lavozimiga ko'ra):

bir hafta muddatda joriy yilda shaharda investitsiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga 400 ta yangi ish o'rni yaratish bo'yicha manzilli rejalarni ishlab chiqsin;

o'n kun muddatda 15 ta mahalla kesimida ularning investitsiya dasturlariga kiritilganligi masalasini, tadbirkorlik subyektlari mavjud bo'lmagan mahallalardagi holatni tahlil qilib, shaharda investitsiya loyihalarini "mahallabay" shakllantirish amaliyotini joriy etish choralarini ko'rib borsin;

bir hafta muddatda har chorakda mutasaddilarni jalb etgan holda grafik asosida barcha mahallalarda ijtimoiy-iqtisodiy holatni hamda investitsiyaga bo'lgan ehtiyojni o'rganish hamda mahalla faollari, tadbirkorlar va tashabbuskorlar bilan muloqotlar o'tkazib borilishini tashkil etsin.

Bunda mahallalarning "o'sish nuqtalari"ni va uni rivojlantirish yo'nalishlarini rivojlantirish choralarini ko'rsin;

ikki hafta muddatda investitsiya dasturlarini, shu jumladan hududiy dasturlarni shakllantirishda mahalla raislarining takliflarini eshitish va inobatga olish amaliyotini yo'lga qo'ysin;

har haftada kamida 2 ta mahallaga shaxsan borgan holda yuqoridagi chora-tadbirlarni yaqindan o'rganib borsin va aniqlangan muammolardan kelib chiqib, shaharda mas'ullar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarni belgilab borsin.

10. Shahar hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari O. Xakimov:

bir hafta muddatda mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda shahar bo'yicha ishsiz bo'lgan 733 nafar yoshning bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli rejalarni "fuqarobay" ishlab chiqsin.

Bunda joriy yilda kasb-hunarlariga va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitiladigan yoshlarning "mahallabay" hisob-kitoblarini qilsin;

har haftada 15 ta mahallaning "ombor kitoblari"ga kiritilgan ishsiz yoshlarning bandligini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni "mahallabay" tahlil qilib, tanqidiy muhokama qilib borsin;

bir hafta muddatda har chorakda mutasaddilarni jalb etgan holda grafik asosida barcha mahallalarda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirilishi jarayonlarini o'rganish hamda yoshlar bilan muloqotlar o'tkazib borilishini tashkil etsin;

har haftada kamida 2 ta mahallaga shaxsan borgan holda yoshlarning bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli dasturlar ijrosini hamda "ombor kitoblari"ga kiritilganlarning bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yaqindan o'rganib borsin va aniqlangan muammolardan kelib chiqib, shaharda mas'ullar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarni belgilab borsin;

bir oy muddatda joriy yilda umumta'lim maktablarini tamomlayotgan va mehnat bozoriga kirib kelayotgan 967 nafar yoshning bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli rejalarni ishlab chiqsin.

11. Shahar hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari X.Oripov:

bir kun muddatda shaharda mutasaddilik qiladigan tashkilotlarning hammasini mahallaga tushirish choralari ko'rsin va ular tomonidan tizimli ishlar olib borilishini yo'lga qo'ysin.

Bunda haftalik reja asosida 15 ta mahallada hashar, ozodalik, yo'l bo'ylariga daraxt ekish, ariqlarni tozalash, chiqindi, ichki ko'chalar va massivlarni tartibga keltirish hamda xiyobon, piyodalar yo'laklarini qilish ishlarini tashkil etsin;

uch kun muddatda mahallalarda "Obod xonadon – obod ko'cha – obod mahalla" mezonlarini joriy etishda mavjud muammolarni hal etib borish tizimini yo'lga qo'ysin hamda 7-8-ilovalarda belgilangan maqsadli ko'rsatgichlarga erishishda ularning rolini oshirish choralari ko'rsin;

bir hafta muddatda mutasaddilarni jalb etgan holda har chorakda grafik asosida barcha mahallalarda infratuzilma va kommunal sohalardagi mavjud muammolarni o'rganish hamda mahalla faollari bilan muloqotlar o'tkazib borilishini tashkil etsin;

bir hafta muddatda har bir mahalla ko'chasida, ko'p qavatli uylar atrofida hamda yo'l bo'yida tut, qayrag'och, gul va iqlim sharoitiga mos bo'lgan boshqa daraxtlarning urug'-ko'chatini tarqatib, ektirish ishlarini tashkil etsin;

har haftada kamida 2 ta mahallaga shaxsan borgan holda yuqoridagi chora-tadbirlarni yaqindan o'rganib borsin va aniqlangan muammolardan kelib chiqib, shahardagi mas'ullar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarni belgilab borsin.

12. Shahar hokimining o'rinbosari – oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i L.Tursunova:

bir hafta muddatda mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda shaharda bo'yicha ishsiz bo'lgan 1303 nafar xotin-qizning bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli rejalarni "fuqarobay" ishlab chiqsin.

Bunda joriy yilda kasb-hunarlariga va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitiladigan xotin-qizlarning "mahallabay" hisob-kitoblarini qilsin;

har haftada mahallalarning "ombor kitoblari"ga kiritilgan ishsiz xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va har oyda mahallalardagi xotin-qizlar faollarining kamida 5 nafar xotin-qizni tadbirkorlik, kasanachilik va hunarmandchilikka jalb qilish bo'yicha qonunchilikda belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni "mahallabay" tahlil qilib, tanqidiy muhokama qilib borsin;

har haftada kamida 2 ta mahallaga shaxsan borgan holda xotin-qizlarning bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli dasturlar ijrosini hamda "ombor kitoblari"ga kiritilganlarning bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yaqindan o'rganib borsin va aniqlangan muammolardan kelib chiqib, shaharda mas'ullar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarni belgilab borsin;

bir oy muddatda joriy yilda umumta'lim maktablarini tamomlayotgan va mehnat bozoriga kirib kelayotgan 502 nafar qizning bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli rejalarni ishlab chiqsin.

13. O‘zbekiston mahallalar uyushmasining shahar bo‘limi (D. Xusenov):

uch kun muddatda mahallalarda “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etishda “yettilik” va mahalla faollarining birlashtirilgan ko‘chalar hamda jami 22729 ta xonadonda manzilli chora-tadbirlarning amalga oshirilishini hamda ular tomonidan shaxsiy ibrat namunasini ko‘rsatishlarini yo‘lga qo‘ysin;

har haftada 15 ta mahallaning “ombor kitoblari”ga kiritilgan ishsiz yoshlarning bandligini ta‘minlash, “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni “mahallabay” tahlil qilib, tanqidiy muhokama qilib borsin;

har haftada mahallalarning balansidagi ko‘rsatkichlardan kelib chiqib, mahallalarda ijtimoiy-ma‘naviy muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi holatlarni oldini olish bo‘yicha manzilli chora-tadbirlarni belgilab borsin;

muntazam ravishda “Nuroni” jamg‘armasining shahar bo‘limi (H. Ernafasov) va manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda shahardagi barcha mahallalarda aholi o‘rtasida “Shahrimizni ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish – bizning bosh maqsadimiz” hamda “Bu mening uyim, mening mahallam, mening shahrim, mening Vatanim” degan g‘oyalarning mazmun-mohiyati va ahamiyati, “boqimandlik” kayfiyatiga berilishini oldini olish, “boqimandalik – o‘ziga dushman ekanligi”ni tushuntirish bo‘yicha targ‘ibot tadbirlarini hamda bunday holatga tushib qolgan fuqarolarga nisbatan jamoatchilik ta‘sirini ko‘rsatish ishlarini tashkil etib borsin.

14. Shahar kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (M.Djurayev):

mehnat migratsiyasidan qaytganlar, kasb-hunarga o‘qitish kurslarini tamomlaganlar bilan manzilli ishlash va doimiy bandligini ta‘minlash choralarini ko‘rib borsin;

oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida imtiyozli kredit mablag‘larining o‘zlashtirilishi va oldin ajratilgan kreditlarning qaytarilishini ta‘minlash choralarini ko‘rsin.

15. Shahar prokuraturasi (Sh. Shernazarov) ichki ishlar bo‘limi (E. Yaxyoyev), adliya bo‘limi (O. Nasirov) bilan birgalikda:

shaharni korrupsiyadan xoli hududga aylantirish, korrupsion jinoyatlarni oldini olish bo‘yicha targ‘ibot va ushbu toifadagi jinoyatlarga qarshi kurashish tadbirlarini kuchaytirsin;

korrupsion jinoyatlarni oldini olish choralarini ko‘rishda mutasaddi davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikni mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratsin;

ushbu yo‘nalishda 2024-yilning 1-yarim yilligi mobaynida amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar, mavjud muammolar va ularni hal etish bo‘yicha takliflar belgilangan yozma axborotni joriy yil 10-iyulga qadar xalq deputatlari shahar Kengashi sessiyasiga ko‘rib chiqish uchun kiritin.

16. Shahardagi barcha bo‘lim va tashkilotlar rahbarlari har oyda kamida bir marotaba mutasaddilik qilinadigan bo‘lim va tashkilotlardagi mehnat jamoalarida shaharni korrupsiyadan xoli hududga aylantirish, korrupsion jinoyatlarni oldini olish

hamda ushbu toifadagi jinoyatlar uchun javobgarlik, shuningdek “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etishda shaxsiy tashabbus ko‘rsatishlari haqida tushuntirish-targ‘ibot tadbirlarini tashkillashtirib borsin.

17. Shahar maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi (M.Tursunova) adliya bo‘limi (O.Nasirov) bilan hamkorlikda:

doimiy ravishda qo‘shma reja-dasturlar asosida shahardagi 13 ta umumta‘lim maktabi o‘quvchilariga yoshlar o‘rtasida korrupsiya va uning turlari, korrupsiyaning davlat va jamiyat rivojlanishiga to‘siq bo‘luvchi salbiy oqibatlari hamda ushbu illatga nisbatan yoshlarda toqatsizlikni shakllantirish yuzasidan huquqiy tushuntirishlar olib borsin.

Shuningdek, “Shahrimizni ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish – bizning bosh maqsadimiz” hamda “Bu mening uyim, mening mahallam, mening shahrim, mening Vatanim“ degan g‘oyalarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini amaliy misollar orqali o‘quvchilarga yetkazilishini ta‘minlasin.

18. Zarafshon shahar davlat soliq inspeksiyasi (Z. Shomurodov) uch kun muddatda 15 ta mahallaning har birida “Mahalla budjeti” tizimini joriy etish bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichlarning ishlab chiqilishini tashkil etsin va yil davomida ushbu parametrlarga erishish choralari ko‘rib borsin.

19. Shahar hokimi N. Rahmanov:

shahardagi 15 ta mahallada “Obod xonadon”, “Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etish ishlarini tashkil qilish maqsadida 8-ilovaga muvofiq mahallalardagi kam ta‘minlangan oilalar hamda yakka yolg‘iz yashovchi fuqarolarga tegishli 40 ta xonadonni ta‘mirlash hamda 9-ilovaga muvofiq, “Xavfsiz mahalla” tamoyilini joriy etish borasida Xiva tumani “Istiqlol” mahallasi tajribasini ommalashtirish yuzasidan mahallalar va ta‘lim muassasalariga kuzatuv kameralarini o‘rnatish ishlarini shahar mahalliy budjetining qo‘shimcha manbalari, homiylik, xayriya hamda qonunchilik hujjatlari bilan ta‘qiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishini ta‘minlasin.

20. Xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D. Xamroyev) hamda Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M. Boltayeva)ga:

har oy yakunida yangi ish o‘rinlarini yaratish, bunda mahallabay ishlash tizimi asosida xatlovda aniqlangan ishsiz aholining bandligini ta‘minlash darajasi past va ishsizligi yuqori bo‘lgan mahallalar bo‘yicha alohida choralar ko‘rish hamda hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining samarali ijro etilishini ta‘minlash yuzasidan tanqidiy muhokama qilib borish;

yangi ish o‘rinlarini yaratish dasturi parametrlarini bajarilishi ustidan muntazam ravishda deputatlik va jamoatchilik nazoratini o‘rnatish hamda har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borish tavsifa etilsin.

21. Xalq deputatlari shahar Kengashining deputatlariga:

2024-yil mobaynida shahardagi har bir sektor hududidagi aholi bandligini ta'minlash bo'yicha manzilli dasturlarning bajarilishi ustidan ta'sirchan deputatlik nazoratini o'rnatish hamda uning joylardagi ijrosini muntazam ravishda o'rganib borish;

“Shahrimizni ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish – bizning bosh maqsadimiz” hamda “Bu mening uyim, mening mahallam, mening shahrim, mening Vatanim” degan g'oyalarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini shahardagi barcha tashkilotlar, mahallalar va ta'lim muassasalarida targ'ibot ishlarida shaxsiy tashabbus va ibrat namunasini ko'rsatish tavsiya etilsin.

22. Zarafshon shahrini ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish hamda “Obod xonadon”, “Obod ko'cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etish ishlari ustidan deputatlik nazoratini amalga oshirish bo'yicha 10-ilovaga muvofiq, mahallalarga birlashtirilgan deputatlarga ushbu qarorda belgilangan topshiriqlarning bajarilishi ustidan muntazam ravishda deputatlik nazoratini o'rnatish hamda har chorak yakunida Kengashga axborot berib borish tavsiya etilsin.

23. Shahar hokimligi axborot xizmati (A.Nematov), “Oltin vodi” gazetasi tahririyati (G.Bobomurodova) shaharni ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish hamda “Obod xonadon”, “Obod ko'cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni, shuningdek, sektorlar rahbarlari tomonidan “mahallabay” va “xonadonbay” ishlash tizimini tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

24. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi D. Xamroyev, Yoshlar siyosati, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi L. Tursunova hamda Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha doimiy komissiya raisi U. Ochilov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



РАХМАНОВ
НАЗИРБЕК
ИСРАИЛОВИЧ

Xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashining

2024-yil 5-martdagi

VI-76-35-5-78-K/24 -son qaroriga

1-ilova

**2024-yilda Zarafshon shahrida aholini doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda bandligini ta'minlash bo'yicha
YIG'MA MAQSADLI KO'RSATKICHLAR**

№	Mahallalar nomi	Yangilangan reja (klasterning 2 711 ta yangi ish o'rni bo'yicha qo'shimcha rejasi bilan)	Shundan shaharning mavjud rejasi	Shu jumladan:				Klaster tomonidan yaratiladigan qo'shimcha ish o'rni	Mahallalarning "Ombor kitoblari"ga kiritilgan ishsizlar soni
				Investitsiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga	Xizmat ko'rsatilishini rivojlantirish hisobiga	Qishloq xo'jaligida	Qurilish sohasida		
1	2	3 = (4+9)	4	5	6	7	8	9	10
Shahar bo'yicha jami		3075	3075	400	2125	0	550	0	837
1-sektor bo'yicha jami		766	766	195	444	0	127		191
1	Alisher Navoiy mahallasi	327	327	84	189	0	54	0	60
2	Konchilar mahallasi	322	322	73	189	0	60	0	71
3	Muruntov mahallasi	117	117	38	66	0	13	0	60
2-sektor bo'yicha jami		779	779	72	556	0	151	0	256
9	O'zbekiston mahallasi	213	213	18	153	0	42	0	50
10	Oltinvodiy mahallasi	224	224	23	158	0	43	0	65
11	Quruvchi mahallasi	210	210	20	154	0	36	0	59
12	Yangi Zarafshon mahallasi	132	132	11	91	0	30	0	82
3-sektor bo'yicha jami		751	751	61	551	0	139	0	164
18	Yoshlik mahallasi	223	223	18	165	0	40	0	47

№	Mahallalar nomi	Yangilangan reja (klasterning 2 711 ta yangi ish oʻrni boʻyicha qoʻshimcha rejasi bilan)	Shundan shaharning mavjud rejasi	Shu jumladan:				Klaster tomonidan yaratiladigan qoʻshimcha ish oʻrni	Mahallalarning “Ombor kitoblari”ga kiritilgan ishsizlar soni
				Investitsiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga	Xizmat koʻrsatilishini rivojlantirish hisobiga	Qishloq xoʻjaligida	Qurilish sohasida		
1	2	3 = (4+9)	4	5	6	7	8	9	10
19	Istiqlol mahallasi	220	220	16	161	0	43	0	45
20	Tinchlik mahallasi	241	241	20	179	0	42	0	51
21	Dovgʻiztov mahallasi	67	67	7	46	0	14	0	21
4-sektor boʻyicha jami		779	779	72	574	0	133	0	226
12	Geolog mahallasi	190	190	17	141	0	32	0	66
13	Bahor mahallasi	193	193	20	140	0	33	0	53
14	Navroʻz mahallasi	199	199	16	148	0	35	0	45
15	Yulduz mahallasi	197	197	19	145	0	33	0	62

Xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashining
2024-yil 5-martdagi
VI-76-35-5-78-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2024-yil mobaynida shahardagi har bir sektor hududidagi aholi bandligini ta'minlash bo'yicha
MAQSADLI KO'RSATKICHLAR

№	Sektorlar	Mahalla soni	Aholi bandligini taʼminlash rejasi	Bandligi taʼminlanadigan jami aholi soni	Шундан:				
					Ishsizlar soni	Umumtaʼlim maktabi bitiruvchilari	Harbiy xizmatdan qaytadiganlar	Mehnatga layoqatli nogironlar	Migratsiyadan qaytib kelishi kutilayotganlar
Shahar boʻyicha jami		15	3075	3755	2289	969	39	49	409
1.	1-sektor	3	766	941	573	248	13	12	95
2.	2-sektor	4	779	942	557	226	12	16	131
3.	3-sektor	4	751	799	545	139	8	9	98
4.	4-sektor	4	779	1073	614	356	6	12	85

Xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashining
2024-yil 5-martdagi
VI-76-35-5-78-K/24 -son qaroriga
3-ilova

**2024-yil mobaynida Zarafshon shahri 1-sektor hududida aholi bandligini ta'minlash
DASTURI**



ZARAFSHON SHAHRINING 1-SEKTOR (ALISHER NAVOIY, KONCHILAR, MURUNTOV MAHALLALARI) HUDUDIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH DASTURI

ZARAFSHON SHAHRINING 1-SEKTOR UMUMIY KO'RSATKICHLARI

Mahallalar soni	3 ta
Xonadonlar soni	4 415 ta
Oilalar soni	5 512 ta
Ko'chalar soni	13 ta
Aholi soni	18 693 nafar
Erkaklar soni	9 419 nafar
Ayollar soni	9 274 nafar
Yoshlar soni	5 290 nafar
Tadbirkorlar soni	814 ta
YTTlar soni	524 ta
Yuridik korxonalar soni	290 ta
Ishsizlar soni	573 ta
O'quv muassasaa bitiruvchilari soni	248 ta
Harbiy xizmatdan qaytadiganlar soni	13 ta
Mehnatga layoqatli nogironlar soni	12 ta
Xorijdan qaytishi kutilayotganlar soni	95 ta

2024-yilda aholi bandligini ta'minlash

766 nafar aholining bandligini ta'minlashga erishiladi. Jumladan,



195 nafar

investitsiya loyihalarini
ishga tushirish hisobiga



444 nafar

xizmat ko'rsatish va
tadbirkorlik faoliyatini
rivojlantirish hisobiga



127 nafar

qurilish sohasida doimiy va mavsumiy ishlarga band
qilish hisobiga

KUTILAYOTGAN NATIJA

NAMUNAVIY LOYIHA

Loyiha tashabbuskori	"LIDER TRANS ZARAFSHON" MCHJ
Loyiha maqsadi	Yuk tashish xizmatini tashkil etish
Loyihaning umumiy qiymati	1 200 mln so'm
O'z mablag'i	700 mln so'm
Bank krediti	500 mln so'm
Xorijiy investitsiya	0
Yangi ish o'rinlari	4
Ishga tushish muddati	01.09.2024



766 ta doimiy ish
o'rni yaratiladi



Ishsizlik darajasi **5,2** foizdan **4,7**
foizga tushishiga erishiladi



Budjetga qo'shimcha manba
yaratiladi

Xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashining
2024-yil 5-martdagi
VI-76-35-5-78-K/24 -son qaroriga
4-ilova

**2024-yil mobaynida Zarafshon shahri 2-sektor hududida aholi bandligini ta'minlash
DASTURI**



ZARAFSHON SHAHRINING 2-SEKTOR (O'ZBEKISTON, OLTIN VODIY, QURUVCHI, YANGI ZARAFSHON MAHALLALARI) HUDUDIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH DASTURI

ZARAFSHON SHAHRINING 2-SEKTOR UMUMIY KO'RSATKICHLARI

Mahallalar soni	4 ta
Xonadonlar soni	5 667 ta
Oilalar soni	6 212 ta
Ko'chalar soni	15 ta
Aholi soni	24 578 nafar
Erkaklar soni	12 620 nafar
Ayollar soni	11 958 nafar
Yoshlar soni	6 892 nafar
Tadbirkorlar soni	360 ta
YTTlar soni	139 ta
Yuridik korxonalar soni	221 ta
Ishsizlar soni	557 ta
O'quv muassasaau bitiruvchilari soni	250 ta
Harbiy xizmatdan qaytadiganlar soni	11 ta
Mehnatga layoqatli nogironlar soni	16 ta
Xorijdan qaytishi kutilayotganlar soni	131 ta

2024-yilda aholi bandligini ta'minlash

779 nafar aholining bandligini ta'minlashga erishiladi. Jumladan,



72 nafar

investitsiya
loyihalarini ishga
tushirish hisobiga



556 nafar

xizmat ko'rsatish va
tadbirkorlik faoliyatini
rivojlantirish hisobiga



151 nafar

qurilish sohasida doimiy va mavsumiy ishlarga band
qilish hisobiga

KUTILAYOTGAN NATIJA

NAMUNAVIY LOYIHA

Loyiha tashabbuskori	""ZARAFSHON OYNA" MCHJ
Loyiha maqsadi	Kalstinirkangan soda ishlab chiqarishni tashkil etish
Loyihaning umumiy qiymati	2 209 520 mln so'm
O'z mablag'i	1 190 000 mln so'm
Bank krediti	0
Xorijiy investitsiya	80 000 ming AQSh dollari
Yangi ish o'rinlari	80
Ishga tushish muddati	15.12.2024



779 ta doimiy ish
o'rni yaratiladi



Ishsizlik darajasi **5,3** foizdan **4,8**
foizga tushishiga erishiladi



Budjetga qo'shimcha manba
yaratiladi



Xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashining
2024-yil 5-martdagi
VI-76-35-5-78-K/24 -son qaroriga
5-ilova

**2024-yil mobaynida Zarafshon shahri 3-sektor hududida aholi bandligini ta'minlash
DASTURI**



ZARAFSHON SHAHRINING 3-SEKTOR (YOSHLIK, ISTIQLOL, TINCHLIK, DOVG'IZTOV MAHALLALARI) HUDUDIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH DASTURI

ZARAFSHON SHAHRINING 3-SEKTOR UMUMIY KO'RSATKICHLARI

Mahallalar soni	4 ta
Xonadonlar soni	4 588 ta
Oilalar soni	6 137 ta
Ko'chalar soni	8 ta
Aholi soni	21 358 nafar
Erkaklar soni	10 757 nafar
Ayollar soni	10 601 nafar
Yoshlar soni	4 597 nafar
Tadbirkorlar soni	441 ta
YTTlar soni	208 ta
Yuridik korxonalar soni	233 ta
Ishsizlar soni	545 ta
O'quv muassasaau bitiruvchilari soni	195 ta
Harbiy xizmatdan qaytadiganlar soni	9 ta
Mehnatga layoqatli nogironlar soni	9 ta
Xorijdan qaytishi kutilayotganlar soni	98 ta

2024-yilda aholi bandligini ta'minlash

751 nafar aholining bandligini ta'minlashga erishiladi. Jumladan,



61 nafar

investitsiya
loyihalarini ishga
tushirish hisobiga



551 nafar

xizmat ko'rsatish va
tadbirkorlik
faoliyatini
rivojlantirish hisobiga



139 nafar

qurilish sohasida doimiy va mavsumiy ishlarga band
qilish hisobiga

KUTILAYOTGAN NATIJA

NAMUNAVIY LOYIHA

Loyiha tashabbuskori	"ZARAFSHAN EKOTEXNIKA" MCHJ qo'shma korxonasi
Loyiha maqsadi	Chiqindilarni saralab qayta ishlashni tashkil etish
Loyihaning umumiy qiymati	27 381 mln so'm
O'z mablag'i	21 626 mln so'm
Bank krediti	0
Xorijiy investitsiya	452 ming AQSh dollari
Yangi ish o'rinlari	21
Ishga tushish muddati	01.12.2024



751 ta doimiy ish
o'rni yaratiladi



Ishsizlik darajasi **5,1** foizdan **4,7**
foizga tushishiga erishiladi



Budjetga qo'shimcha manba
yaratiladi



Xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashining
2024-yil 5-martdagi
VI-76-35-5-78-K/24 -son qaroriga
6-ilova

**2024-yil mobaynida Zarafshon shahri 4-sektor hududida aholi bandligini ta'minlash
DASTURI**



ZARAFSHON SHAHRINING 4-SEKTOR (GEOLOG, BAHOR, NAVRO'Z, YULDUZ MAHALLALARI) HUDUDIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH DASTURI

ZARAFSHON SHAHRINING 4-SEKTOR UMUMIY KO'RSATKICHLARI	
Mahallalar soni	4 ta
Xonadonlar soni	8 059 ta
Oilalar soni	8 871 ta
Ko'chalar soni	16 ta
Aholi soni	28 743 nafar
Erkaklar soni	14 717 nafar
Ayollar soni	13 926 nafar
Yoshlar soni	9 811 nafar
Tadbirkorlar soni	476 ta
YTTlar soni	197 ta
Yuridik korxonalar soni	279 ta
Ishsizlar soni	617 ta
O'quv muassasaau bitiruvchilari soni	286 ta
Harbiy xizmatdan qaytadiganlar soni	11 ta
Mehnatga layoqatli nogironlar soni	12 ta
Xorijdan qaytishi kutilayotganlar soni	85 ta

2024-yilda aholi bandligini ta'minlash

779 nafar aholining bandligini ta'minlashga erishiladi. Jumladan,

**72 nafar**
investitsiya loyihalarini ishga tushirish hisobiga

**574 nafar**
xizmat ko'rsatish va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hisobiga

**133 nafar**
qurilish sohasida doimiy va mavsumiy ishlarga band qilish hisobiga

KUTILAYOTGAN NATIJA

NAMUNAVIY LOYIHA

Loyiha tashabbuskori	"ZARAFSHON GRAND SERVIS" MCHJ
Loyiha maqsadi	Mehmonxona xizmatini tashkil etish
Loyihaning umumiy qiymati	3000 mln so'm
O'z mablag'i	2500 mln so'm
Bank krediti	500 mln so'm
Xorijiy investitsiya	0
Yangi ish o'rinlari	20
Ishga tushish muddati	01.09.2024



779 ta doimiy ish o'ni yaratiladi



Ishsizlik darajasi 5,2 foizdan 4,7 foizga tushishiga erishiladi



Budjetga qo'shimcha manba yaratiladi

Xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashining
2024-yil 5-martdagi
VI-76-35-5-78-K/24 -son qaroriga
7-ilova

**2024-yil mobaynida Zarafshon shahar mahallalarda “Obod xonadon” mezonlari joriy etiladigan xonadonlar bo‘yicha
MAQSADLI KO‘RSATGICHLAR**

№	Mahallalar nomi	Mahalla soni	Xonadonlar soni	Shundan, “Obod xonadon” mezonlari joriy etiladigan xonadonlar soni	Shu jumladan, ijtimoiy holati:		
					yaxshi boʻlgan xonadonlar soni	ogʻir boʻlgan xonadonlar soni	oʻta ogʻir boʻlgan xonadonlar soni
Shahar boʻyicha jami		15	22729	9386	9381	5	
1-sektor boʻyicha jami		3	4415	1934	1929	5	
1.	Alisher Navoiy mahallasi	1	1728	618	618	-	-
2.	Konchilar mahallasi	1	1749	714	714	-	-
3.	Muruntov mahallasi	1	938	602	557	5	-
2-sektor boʻyicha jami		4	5667	2487	2487		-
4.	Oltinvodiy mahallasi	1	1019	548	548	-	-
5.	Oʻzbekiston mahallasi	1	1017	532	532	-	-
6.	Quruvchi mahallasi	1	2198	1304	1304	-	-
7.	Yangi Zarafshon mahallasi	1	1433	103	103	-	-
3-sektor boʻyicha jami		4	4588	1633	1633		
8.	Yoshlik mahallasi	1	1042	419	419		
9.	Istiqlol mahallasi	1	1270	511	511	-	-
10.	Tinchlik mahallasi	1	1835	579	579	-	-
11.	Dovgʻiztov mahallasi	1	441	124	124	-	-
4-sektor boʻyicha jami		4	8059	3332	3332		

№	Mahallalar nomi	Mahalla soni	Xonadonlar soni	Shundan, “Obod xonadon” mezonlari joriy etiladigan xonadonlar soni	Shu jumladan, ijtimoiy holati:		
					yaxshi bo‘lgan xonadonlar soni	og‘ir bo‘lgan xonadonlar soni	o‘ta og‘ir bo‘lgan xonadonlar soni
12.	Geolog mahallasi	1	1968	856	856	-	-
13.	Bahor mahallasi	1	2158	913	913	-	-
14.	Navro‘z mahallasi	1	1936	746	746	-	-
15.	Yulduz mahallasi	1	1997	817	817	-	-

Xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashining
2024-yil 5-martdagi
VI-76-35-5-78-K/24 -son qaroriga
8-ilova

**2024-yil mobaynida Zarafshon shahar mahallalarda “Obod xonadon” mezonlarini joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlari bo‘yicha
MAQSADLI KO‘RSATKICHLAR**

№	Mahallalar nomi	Mahalla soni	“Obod xonadon” mezonlari joriy etiladigan xonadonlar	Shundan:						
				qo‘shimcha uy-joylar quriladigan xonadonlar	uy-joylari ta’mirlanadigan xonadonlar	uy-joylari oqlanadigan xonadonlar	tandirxonalari oqlanadigan xonadonlar	molxonalari oqlanadigan xonadonlar	hojatxonalari oqlanadigan xonadonlar	Tomorqalariga ekin ekiladigan xonadonlar
Shahar bo‘yicha jami			908		40					
1-sektor bo‘yicha jami			375	-	15					-
1.	Alisher Navoiy mahallasi	1	7	-	7	-	-	-	-	-
2.	Konchilar mahallasi	1	4	-	4	-	-	-		-
3.	Muruntov mahallasi	1	364	-	4	162	-	75	123	-
2- sektor bo‘yicha jami		4	174	-	7					-
4.	Oltinvodiy mahallasi	1	1	-	1	-	-	-		-
5.	O‘zbekiston mahallasi	1	2	-	2	-	-	-		-
6.	Quruvchi mahallasi	1	2	-	2	-	-	-		-
7.	Yangi Zarafshon mahallas	1	169	-	2	100	7	-	60	-
3- sektor bo‘yicha jami		4	349	-	8					-
8.	Yoshlik mahallasi	1	2	-	2	-	-	-		-
9.	Istiqlol mahallasi	1	2	-	2	-	-	-		-
10.	Tinchlik mahallasi	1	2	-	2	-	-	-		-
11.	Dovg‘iztov mahallasi	1	343	-	2	242	-	87	12	-
4- sektor bo‘yicha jami		4	10	-	10					-
12.	Geolog mahallasi	1	2	-	2	-	-	-		-
13.	Bahor mahallasi	1	2	-	2	-	-	-		-

№	Mahallalar nomi	Mahalla soni	“Obod xonadon” mezonlari joriy etiladigan xonadonlar	Shundan:						
				qo‘shimcha uy-joylar quriladigan xonadonlar	uy-joylari ta’mir lanadigan xonadonlar	uy-joylari oqlanadigan xonadonlar	tandirxonalari oqlanadigan xonadonlar	molxonalari oqlanadigan xonadonlar	hojatxonalari oqlanadigan xonadonlar	Tomorqalariga ekin ekiladigan xonadonlar
14.	Navro‘z mahallasi	1	2	-	2	-	-	-		-
15.	Yulduz mahallasi	1	4	-	4	-	-	-		-

Xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashining
2024-yil 5-martdagi
VI-76-35-5-78-K/24 -son qaroriga
9-ilova

2024-yil mobaynida shaharda “Xavfsiz mahalla” tamoyilini joriy etish borasida Xiva tumani “Istiqlol” mahallasi tajribasini ommalashtirish
yuzasidan mahallalar va ta’lim muassasalarida o’rnatiladigan kuzatuv kameralariga ehtiyoj bo’yicha

MAQSADLI KO’RSATKICHLAR

Ko’rsatkichlar	Zarafshon shahri
Mahallalar soni	15
1-sektor	3
2-sektor	4
3-sektor	4
4-sektor	4
Ko’rsatkichlar	Zarafshon shahri
Shundan, mahallalarga zarur kameralar soni	20
1-sektor	9
2-sektor	4
3-sektor	3
4-sektor	4

Xalq deputatlari Zarafshon shahar Kengashining
2024-yil 5-martdagi
VI-76-35-5-78-K/24 -son qaroriga
10-ilova

**Zarafshon shahrini ishsizlik va korrupsiyadan xoli hududga aylantirish hamda “Obod xonadon”,
“Obod ko‘cha” va “Obod mahalla” mezonlarini joriy etish ishlari ustidan deputatlik nazoratini
amalga oshirish bo‘yicha mahallaga biriktirilgan shahar Kengashi deputatlarining
RO‘YXATI**

№	Mahalla nomi	Biriktirilgan deputat F.I.Sh.
1.	Aliser Navoiy mahallasi	Gaffurov Rasul Mansurovich
2.	Konchilar mahallasi	Vafojev Vohidjon Shafojevich
3.	Oltinvodiy mahallasi	Ismatov Diyorjon Xayrullayevich
4.	O‘zbekiston mahallasi	Qodirova Shoir Mardonovna
5.	Quruvchi mahallasi	Haydarova Matluba Davronovna
6.	Yoshlik mahallasi	Akramova Nodira Xabibovna
7.	Istiqlol mahallasi	Saidov Iftixor Baxodirovich
8.	Tinchlik mahallasi	Tursunova Laylo Zayniyevna
9.	Geolog mahallasi	Tolibov Xurshid Musayevich
10.	Bahor mahallasi	Xamroyev Dilshod Maxmudovich
11.	Navro‘z mahallasi	Temirov Obidjon Salaydinovich
12.	Yulduz mahallasi	Boboyorova Saodat Doniyorovna
13.	Yangi Zarafshon mahallasi	Muhitdinov Zafar Tairovich
14.	Muruntov mahallasi	Cho‘liyev Akbar Bahronovich

15.	Dovg'iztov mahallasi	Djumabayev Nurg'isa Davletiyarovich
-----	----------------------	-------------------------------------